

## **BADIIY MATNDA UCHRAYDIGAN G`AYRIODATIY BIRIKMALARNING MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI**

*Akbarova Munira Shavkatovna*

*Qo`qon DPI o`qituvchisi*

*Gmail: akbarovamuniraxon30@gmail.com*

*E-mail: akbarovam1989@mail.ru*

*Muhammadjonova Nurjahon*

*Qo`qon DPI I bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada badiiy matnda g`ayriodatiy birikmalarning namoyon bo`lishi, ularning lingvopoetik xususiyatlari, g`ayriodatiy birikmalardagi ekspressivlik, hissiy-emotsionallikni ifodalash xususiyatlari ko`rsatib o`tilgan. O`zbek yozuvchilari tomonidan badiiy matnlarda ishlatilgan g`ayriodatiy birikmalarning ayrimlari aniqlangan va tuzilish jihatidan morfologik tahlilga tortilgan.

**Kalit so`zlar:** adabiyot, g`ayriodatiy birikmalar, lingvopoetika, ekspressivlik, hissiy-emotsionallik.

### **Морфологическая характеристика необычных сочетаний, встречающихся в художественных текстах**

**Аннотация:** В данной статье показано проявление необычных сочетаний в художественном тексте, их лингвопоэтические особенности, выразительность в необычных сочетаниях, особенности эмоционально-эмоциональной выразительности. Выявлены и подвергнуты структурно-морфологическому анализу некоторые необычные сочетания, используемые узбекскими писателями в художественных текстах.

**Ключевые слова:** литература, необычные сочетания, лингвопоэтика, выразительность, эмоциональность.

## **Morphological characteristics of unusual combinations found in literary texts**

**Annotation:** In this article, the manifestation of unusual combinations in the artistic text, their linguopoetic features, expressiveness in unusual combinations, the features of emotional-emotional expression are shown. Some of the unusual combinations used by Uzbek writers in artistic texts were identified and subjected to morphological analysis in terms of structure.

**Key words:** literature, unusual combinations, linguopoetics, expressiveness, emotionality.

Adabiyotshunos P. Qodirovning adabiyot haqida quyidagi fikrlari mavjud: “Haykallar misdan, marmardan yasaladi, binolar g‘ishtdan, oynadan, po‘latdan quriladi. Adabiy asarda misning ham, marmarning ham, po‘lat va g‘ishtning ham o‘rniga badiiy so‘z ishlatiladi. Adabiy asarning muzika, rassomlik va boshqa ijod sohalaridan farqi uning ohanglar, chiziqlar, bo‘yoqlar vositasi bilan emas, so‘zlar vositasi bilan yaratilishida ko‘rinadi.” Adabiyot so‘z san’ati ekanligi barchaga kundek ravshan, uning birlamchi vositasi til ekanligi ham inkor etib bo‘lmas haqiqatdir. “Adabiyot – fikr, tuyg‘ularimizdagi to‘lqunlarni so‘zlar, gaplar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarda ham xuddi shu to‘lqunlarni yaratmoqdir”. [1] Adabiyot san’atida ijodkor o‘z ijod mahsulini yaratish uchun til materiallaridan shunchalik mohirona foydalanadiki, til materiallarini bir-biriga grammatik va semantik jihatdan shunday birlashtiradiki, natijada o‘quvchi bu ijod namunasining naqadar betakror san’at asari ekaniga shohid bo‘ladi. Har qanday badiiy asar tili badiiy matn sifatida tilning muhim vazifalaridan biri bo‘lmish estetik vazifani reallashtiradigan yaxlitlik ekanligi aksar tilshunoslar tomonidan aytiladi. Tilning obrazlilikgi tilning estetik vazifasida qo‘llanilishidir. Badiiy so‘z faqat majoziy ma’noda ishlatilmaydi, badiiy so‘zning haqiqiy ma’nosi hech qachon uning tom ma’nosi bilan chegaralanmaydi. Bu yerda kengroq mazmun ko‘pincha tom ma’noda olingan boshqa so‘z shaklida uzatiladi. Bu hodisa ism ma’noning o‘sishidir. Ma’noning ortishi badiiy nutqning

obrazlilikini yaratadi. Badiiy asardagi soʻz tashqi koʻrinishida tegishli milliy-lingvistik tizimdagi soʻz bilan toʻgʻri kelib, maʼnosiga tayanib, badiiy voqelik olamiga qaratiladi. Soʻzning ichki shakliga tushmaydigan keng tushunilgan obrazlilik faqat badiiy nutqning xususiyatidir. Shunday qilib, yozuvchi dunyosining surati, har qanday odamning dunyosi tasviri kabi, uning ongida borliq parchalarini kontseptsiyalashning oʻziga xos xususiyatlari natijasida shakllanadi. Chunki badiiy asar matnida lingvistik badiiy vositalar yordamida voqelikning obrazli inʼikosi, yozuvchining unda mujassamlangan dunyo tasviri olamning badiiy tasviri xususiyatlariga ega boʻlishi bilan ifodalanadi. Badiiy matnda tilning estetik vazifasining namoyon boʻlishi, yaʼni matn lingvopoetikasi oʻrganilar ekan, ayni vazifaning amalga oshishida ishtirok etadigan barcha til birliklari diqqat markazida boʻlishi lozimligi tabiiy. Ammo, "...badiiy matnda barcha birliklar, vositalar aynan teng badiiy-estetik qimmatga ega boʻlmaydi. Badiiy matnda muayyan til birliklari, til vositalari alohida, ayricha poetik qimmat kasb etadi, boshqalari esa tasvirda ishtirok etsa ham, poetik jihatdan passivroq boʻladi. Yaxlit badiiy matn yoki muayyan badiiy kontekstga koʻra, muayyan til birligi estetik jihatdan birinchi planga chiqadi va qoʻshimcha, yangi badiiy maʼnolar ifodachisiga aylanadi." [2] Badiiy matnni yaratishda serqirra ijodkorlar, yozuvchilar soʻzlardan, iboralardan, turli birikmalardan va sintaktik birliklardan shunday mahorat bilan foydalanadilarki, ularga qoʻshimcha maʼno yuklash orqali matn mazmundorligini oshirishga, matnni estetik jihatdan boyitishga va shu bilan birga oʻquvchida matn yuzasidan yuksak taassurot uygʻotishga erishadilar. Bu nuqtai nazardan badiiy matnlarda ekspressiv sintaksisning muhim birligi sifatida poetik aktuallashtirish imkoniyati juda katta boʻlgan sintaktik vositalardan biri gʻayriodatiy birikmalardir. Muallif badiiy matnda voqelikni tasvirlashning mavjud koʻrinishlarini chigʻiridandan oʻtkazadi va u har doim toʻgʻridan-toʻgʻri yoki turli usullar bilan aks ettirilayotgan voqea-hodisaga oʻz munosabatini bildiradi. Biroq u voqeani sodda qilib aytmasdan, ongli tarzda oʻquvchiga badiiy taʼsir etish vositalarini tanlaydi. Mana shu vaziyatda muallif

g'ayriodatiy birikmalarga ehtiyoj sezadi. Badiiy matnda uchraydigan bunday g'ayriodatiy birikmalar sezilarli darajada lingvopoetik qimmat kasb etadi, matn bo'yoqdorligi va mazmundorligini ortishiga sabab bo'ladi, matnning semantik va badiiy strukturasini ma'lum darajada murakkablashtiradi hamda ta'sirchanligini oshiradi. Badiiy matnni yozishda muallif o'z salohiyatidan kelib chiqqan holda birikmalar tuzish usullarini tanlaydilar. Shu sabab birikmalarning morfologik tuzilishi ham rang-barang bo'ladi. Quyida badiiy matnlardan aniqlangan g'ayriodatiy birikmalarning morfologik yasaliş usullarini tahlil qilamiz.

1. Sifat + ot ko'rinishidagi g'ayriodatiy birikmalar: uzun gap, yuvosh tabassum, to'ng'ich hikoyalar, sovuq shovqin, sovuq o't, achchiq hid, telba to'lqinlar: Qani yur, uzun gapga fursat yo'q (G'.G'ulom "Shum bola"). Uning ko'zlarida yuvosh tabassum bor edi(O'.Hoshimov "Bahor qaytmaydi"). Sherzod shaharga kelgandan buyon ko'p davralarda bo'lgan, hatto to'ng'ich hikoyalari nazarga tushib qolgan edi (O'.Hoshimov "Nur borki, soya bor"). Tog' shabadasi Shodasoyniing sovuq shovqinini daralarga taratmoqda (A.Muxtor "Chinor"). Iskandar bir qarashdayoq Anvarning ko'zlarida sovuq o't yonib ketganini sezdi (O'.Hoshimov "Uch xil odam"). Yo'q, avval dimog'imga achchiq hid urildi (O'.Hoshimov "Tushda kechgan umrlar"). Telba to'lqinlar endi jilovlanib yuvosh bo'lib qoldi (O'.Hoshimov "Bahor qaytmaydi").

2. Ot + ot ko'rinishidagi g'ayriodatiy birikmalar: umr fasllari, sukunat seli, hayot to'lqini, ko'ngil qafasi, alam shamoli, bulutlar qitmirligi, g'ashlik buluti, taxdidning libosi, gapning erkagi: Uni ko'rgan kishi har faslning o'z husn-latofati bor degan gapni yil fasllari to'g'risidagina emas, umr fasllari to'g'risida ham aytsa bo'lar ekan deb qolardi(A.Qahhor "To'yda a'za"). Chor atrofga nur aralash sukunat seli quyilganday, hammayoq jimjit bo'lib qoldi(O.Hoshimov "Urushning so'nggi qurboni"). Kimki taqdirga tan bersa, u hayot to'lqinida g'arq bo'lib ketadi(O.Yoqubov "Muzqaymoq"). Shogirdlar qancha ko'p bo'lsa, ko'ngil qafasi shuncha ravshanroq bo'ladi(G'.G'ulom "Shum bola"). Xuddi alam shamoli

esgandek bo`ldi(A.Qahhor “Daxshat”). Laxtak bulutlar qitmiriligi tufayli yayrabnur tarata olmayotgan quyosh...(T.Malik “Shaytanat”). Ma’sumaning ko`nglini g`ashlik buluti chirmab turardi(T.Malik “Shaytanat”). Asabbek tahdidning libosini kiyib olgan edi(T.Malik “Shaytanat”). – Menga qara, el chavandozi, -dedi. – Shu otni menga sotmaysanmi? Yigirma qo`y beraman. Gapning erkagini ayt(T.Murod “Yulduzlar mangu yonadi”).

3. Yasama sifat + ot ko`rinishidagi g`ayriodatiy birikmalar: xashaki shamol, asabiy poshna, mudroq yer, beozor tanbeh, berahm tun, horg`in nola, kasalmand xazon: Xashaki shamol nima edi u insonning ko`rganlari oldida (T.Malik “Alvido bolalik”). Anvarning quloqlari ostida keskin, asabiy poshna sadolari uzoq vaqt qarsillab turdi (O`.Hoshimov “Bahor qaytmaydi”). Qorayib qolgan mudroq yer bir kayfiyatda og`ir-og`ir xo`rsinayotganga o`xshaydi O`.Hoshimov “Nur borki, soya bor”). – Bolani qarg`ama, Qumri! – dedi Oqsoqol beozor tanbeh berib (O`Hoshimov “Ikki eshik orasi”). Berahm tun qa`rini yorib o`tib, uning qoshida paydo bo`lgim kelmasdi (Ch.Aytmatov “Qiyomat”). Oyoq ostida kasalmand xazonlar ingraydi (O`.Hoshimov “Tushda kechgan umrlar”). Biz yuqorida ko`rib o`tgan g`ayriodatiy birikmalar so`zlarning bitishuv yo`li bilan hosil qilingan birikmalar bo`lib, ular orqali so`zlarning ma’no qirralari nechog`lik rangdor ekanligi, o`zaro boshqa so`zlar bilan bog`lana olish imkoniyatlari naqadar keng ekanligining guvohi bo`lishimiz mumkin. G`ayriodatiy birikmalarni bu yo`l bilan hosil qilish orqali muallif so`zlardagi bir-biri bilan tillasha olish, bir-birining mazmunini boyita olish, o`zi bog`langan so`zda o`zga qiyofa kashf eta olish imkoniyati cheksiz ekanligini namoyon qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Yuldashev M.M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi: Filol. fan. dok. ...diss. avtoref. – Toshkent, 2009.
- 2.Yo`ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2008.
3. Said Ahmad. “Kiprikda qolgan tong”. Sharq NMAK. Toshkent, 2008. – 59 b.
4. Tohir Malik. “Shaytanat”. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) – 2007. – 210 b.
5. O`tkir Hoshimov. “Dunyoning ishlari” / qissa / “Abadiy barhayot asarlar” turkumi. N. - T.: “Ilm-ziyo-zakovat”, 2019. – 176 b.